



THE IMPORTANCE OF A MODERN APPROACH TO THE TEACHING PROCESS

¹ Jalolova Yulduz Muxiddin qizi, ² To'raqulova I.X.

¹ Jizzakh State Pedagogical Institute 2nd year master, ² Scientific advisor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5035833>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

pedagogy, education, technology, informatization, traditional technology, modern technology.

ABSTRACT

This article provides information on the use of modern technology in the teaching process, its importance and differences from traditional education. Types of modern technologies are also represented on the basis of examples.

O'QITISH JARAYONIDA ZAMONAVIY YONDASHUV AHAMIYATI

¹ Jalolova Yulduz Muxiddin qizi, ² To'raqulova I.X.

¹ JDPI 2 kurs magistr, ² Ilmiy rahbar: P.f.n

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

pedagogika, ta'lim, texnologiya, axborotlashtirish, an'anaviy texnologiya, zamonaviy texnologiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, uning ahamiyati va an'anaviy ta'lim bilan farqli jihatlari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek zamonaviy texnologiyalarning turlari misollar asosida ifodalangan.

Jamiyatni axborotlashtirish inson taraqqiyotining barcha sohalarida intellektual faoliyat turlarini ko'paytirish va rolini oshirish bilan bog'liq ob'ektiv jarayon bo'lib, xalq turmush darajasining yaxshilanishi, ijtimoiy ehtiyojning qondirilishi, iqtisodning o'sishi, fan-texnika taraqqiyotining jadallashishi uchun xizmat qiladi. Jamiyatni axborotlashtirishdagi eng muhim yo'nalishlardan biri ta'lim tizimidir.

Ta'lim tizimini axborotlashtirish rivojlantiruvchi ta'limni joriy etish maqsadida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash, uning metod va vositalaridan foydalanish, ta'lim tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, sifat va samaradorligini oshirish. yoshlarni axborotlashgan jamiyat sharoitida yashashga tayyor qilib tarbiyalash masalalarini o'z ichiga oladi.



Pedagogika fani amaliyotida turli yondashuvlar qo'llaniladi. An'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, texnologik yondashuv shular jumlasidandir. "Texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "texnos" - mahorat, san'at, "logos" - fan, ta'limot ma'nolarini anglatadi. "Texnologiya" tushunchasi - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui va shunday usul va metodlarni ishlab chiqaruvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta'riflanadi. L.V.Golish ta'lim texnologiyasining texnik texnologiyadan kelib chiqqan holda uch xil atamasini ifodalab bergan. [4;55]

Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

O'qitish texnologiyasi birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli harakat aspektini anglatadi. Bu, ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalarga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi, usul va vositalarning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan talim modelini ishiab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; Ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatining loyahasini bajarishning bayonidir.

Ta'lim texnologiyasi - pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi.

Shu kabi o'qitish texnologiyalari asosida o'qitishning zamonaviy yondashuvi

kelib chiqqan. Quyidagi jadvalda ta'limga zamonaviy yondashishning va an'anaviy yondashishning farqi va uning afzalliklari keltirilgan.[7;84]

<i>An'anaviy yondashuv</i>	<i>Zamonaviy yondashuv</i>
1. Asosiy e'tibor o'qitishning mazmuniga qaratilgan;	1. Asosiy e'tibor o'qitishning mazmuniga va jarayoniga qaratilgan;
2. O'qituvchi – boshqaruvchi, o'quvchi yetaklanuvchi;	2. O'quvchi o'quv jarayonida faol qatnashadi
3. O'quv maqsadlari aniq emas;	3. O'quv maqsadlari muhokamada aniqlanib, kutilayotgan natija orqali aks ettiriladi;
4. O'qituvchi bilimlarini manolog orqali yetkazadi;	4. O'qituvchi bilish jarayonida qatnashadi va dialog, polilog hamda zamonaviy texnologiyalrdan foydlanadi.
5. O'qituvchi to'g'ri javobni formal holatda talab qiladi;	5. O'qituvchi savolga turli xil javoblarni rag'ballantiradi;

Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'qitish tizimi ancha samaralidir. Ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi usullari mavjud[3;55-58]:

- multimedia darsligi;
- bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar to'plami



keltirilgan metodik tavsiyalar;

- o'rganilayotgan mavzular bo'yicha nazariy bilimlar talabalar tomonidan qay darajada o'zlashtirilayotganligini tekshirishga mo'ljallangan test dasturlari;

- bir tildan ikkinchisiga yoki bir alifbodan ikkinchisiga o'tish;

- elektron virtual kutubxona:

- har bir talaba uchun amaliy topshiriqlarni tayyorlash va bosib chiqarish dasturi;

- masofadan o'qitish, ya'ni o'qituvchi bilan o'quvchilar ma'lum bir masofada joylashgan holda ta'lim berish tizimi;

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining pedagogika va boshqa fan yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyasiga ega. U birinchi galda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quv- chilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi. Ta'lim ijtimoiy tizimning bir qismi bo'lib, u o'z rivojlanishida jamiyat taraqqiyotining yo'nalishlariga bog'liq ravishda ro'y berayotgan aksariyat o'zgarishlarga muvofiq o'zgara boradi. Ana shu doirada innovatsiyalar ta'lim oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Shunday qilib, yangi texnik vositalar va yangi texnologiyalar ta'limga yangi tartib-qoidalami kiritish uchun eng muhim

komponentlardan biridir. Biroq ularni qanday qilib tatbiq etish va amalda foydalanishni bilib olish, aslida, hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Buning uchun maxsus tayyorgarlik, katta kuch va ko'p vaqt sarflash lozim, ya'ni ta'limda innovatsion jarayonlarning tatbiq qilinishi bilan o'qituvchining roli pasaymaydi, balki o'quv-tarbiya jarayonining yuksak bosqichlarida yana ham ortadi. Bu esa pedagogdan o'z ilmini yangidan va tanqidiy tahlil etishni talab etadi. Chunki yangi tartib-qoidalaridan foydalandimi yoki axborot manbai sifatida qolib ketadimi, bu narsa ayni o'qituvchiga bog'liq. O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita tartib-qoidalariga jiddiy tayyorlangan, yo'l- yo'riq olgan, moslangan, ruhlangan bo'lishi lozim. Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat va e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq zamonaviy pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati - tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Yangi ta'lim tizimini joriy etish avvalgisini inkor etish emas, balki unga tayanib, ijodiy foydalangan holda rivojlanishning yangi pog'onasiga chiqish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avazov SH. Amaliy kasbiy ta'lim metodikasi. Toshkent. 2014 y.
2. Azixodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: TDPU, 2013.
3. Begimqulov U. Masofaviy o'qitish va pedagogik ta'lim. Pedagogik ta'lim, Toshkent, 2013. №5.



4. Golish L.V. "Ta'limning faol usullari: mazinuni, tanlash, amalga oshirish".Ekspress - qo'llanma, T. : 2002 y.
5. O'.Tolipov, M.Barakaev, SH,Sharipov. Kaspiy Pedagogika. T.:TDIU,2001y.
6. Sayidaxmedov N. Pedagogika amaliyotining texnologiyalarini qo'llash na'munalarini .T.: RTM. 2000 yil.
7. Ziyomammedov B., Abdullaeva SH. Ilg'or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. : 2001 y.
8. www.arxiv.uz
9. www.ilm.uz